

11-mavzu: Pedagogik ilmiy tadqiqot ishlarining tizimli taxlili.

Reja:

1. Pedagogik tadqiqotlarda tizimiy yondashuv va ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi
2. Tizimli tahlil tushunchasi.
3. Tizimli tahlilning vazifalari.
4. Pedagogik faoliyatda tizimli tahlil

Kalit soʻzlar: “izoh”, “sharh”, “tahlil”, “tizim”, tizimli tahlil, tizimli yondashish, boshqaruvchanlik vazifasi, tizim modeli, tizimli aloqadorlik, diagnostik vazifasi, ogohlantiruvchi, bilish vazifasi, pedagogik faoliyat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. - 5 j. - T.: O'ME Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.
 1. To'raqulov X.A. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi. - T.: Fan, 2007. -252 b.
 2. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. T.: Fan, 2006.248 b.

Xorijiy adabiyotlar

1. Afanasev V.G. Sistemnost i obshchestvo. – M., 1980.
2. Vegner-Dobler R. Sistema indikatorov v issledovaniyax i razrabotkax. Bibliometricheskiy analiz v nauchnykh issledovaniyax // Jurnal Nauchnye i texnicheskie biblioteki. – M., 2004, № 10.
3. Novosel'sev V.I. Sistemnyy analiz: sovremennyye konsepsii. – Voronej: Kvarta, 2002.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Samarov R. Rajabov A. Siyosiy matn tahlili (metodologiya, nazariya, amaliyot). - Toshkent: Akademiya, 2010.
2. Samarov R. Xavfsizlikning metodologik asoslari // - T.: Akademiya, 2010.
3. Samarov R., Sadridinov S. Barkamollik tizimida kasbiy layoqatlilik // J. Zamonaviy ta'lim. 2013, 6-son

Internet saytlari.

1. www.pedagogika.ru
2. www.Ziyo-Net.uz

1. Pedagogik tadqiqotlarda tizimiy yondashuv va ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi.

Ma'lumki, har qanday ilmiy tadqiqot shida avvalo, soha, yo'nalish aniqlanishi va undagi muammo shakllanmog'i lozim.

Tizimiy yondashuv — ilmiy tadqiqot ishidagi echimi talab nazariy va amaliy masala bo'lib, u mavzuning dolzarbligi asoslanishi asosida shakllantiriladi, ya'ni ilmiy, ilmiy-uslubiy, ilmiy-metodologik jihatdan tadqiq etiladigan masaladan iborat bo'ladi.

Qism tizim - yagona yaxlit tizim va uning funksiyasi bo'yicha qo'yilgan maqsad echimi sari yo'naltirilgan o'zaro bog'langan elementlar majmuasi.

YUqorida sanab o'tilgan pedagogik innovatsiyalarning har birini hayotga joriy etishda ularga alohida va maxsus TYO metodologiyasini ishlab chiqishga to'g'ri keladi.

Uzluksiz ta'lim tizimining bugungi kundagi talabi jahon ta'limining zamonaviy talablarga javob berishi lozim. Tizimning bu sohada, ayniqsa pedagogik - tadqiqotlarni olib borishdagi ilmiy izlanishlarimiz natijalari, TYO tadqiqot usulini qo'llashda quyidagi asoslarga tayanish lozimligini ko'rsatmoqda:

- o'rganilayotgan manba bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlar bankini tayyorlash;
- tayyorlangan ma'lumotlar bankini ta'lim texnologiyasi va maqsadiga qarab tizimlarga ajratish;

- o'rganilayotgan fan mazmunini tizimiy yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilib chiqish;
- tizimiy yondashuvning manbaga nisbatan maksadini aniqlash;
- tizimiy yondashuv tuzilishiga qarab elementlar va qism tizimlarni aniqlab chiqish;
- tizimiy yondashuv vazifasini aniqlash;
- tizimiy yondashuv tadqiqot usulini qo'llash algoritmini ishlab chiqish;
- tizimiy yondashuv yordamida o'qitish dasturi va jarayonini dastlabki ekspertizadan o'tkaza olish;

- tizimiy yondashuv yordamida o'qitishga ko'rsatma va uslubiy tavsiyalar tayyorlash;
- olingan natijalarni baholash mezonini ishlab chiqish;
- maqsadga erishganlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqish;
- tizimiy yondashuv yordamida ta'limni boshqarish to'g'risida xulosa chikarish va bu metodologiyadan amaliyotda foydalanishga tavsiyalar tizimini tayyorlash.

Keltirilgan ta'riflar va tizimiy yondashuv asoslaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, mazkur tadqiqot usuli —> «ma'lumotlar -> ma'lumotlar banki -> axborot -> axborotlar banki -> axborot tizimlari» uzluksizligi bilan to'g'ri va aniq faoliyat yurita olar ekan.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilinishi bilan ta'lim tizimida quyidagicha ta'lim innovatsiyalarini hal qilish lozimligi ma'lum bo'lib qoldi:

- xalqimizning boy ma'naviy va intellektual salohiyati va umumbashariy qadriyatlarga suyangan holda ta'limni rivojlantirishning jahon tendensiyalarini e'tiborga olib davlat ta'lim standartini takomillashtirish;

- o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida boy milliy madaniy-tarixiy an'analar, xalk urf odatlari va umumbashariy kadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy va pedagogik shakllar va manbalarni ishlab chiqish va joriy qilish;

- uzluksiz ta'lim tizimida axborot muhitini yaratish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuter tarmoqlari bazasida ta'lim jarayogashing axborotlar ta'minotini rivojlan-tirish;


- ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarni yaratishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlar salmog'ini kengaytirish va ularni «Ta'lim—fan—amaliy faoliyat» integratsiyasi nuqqai nazaridan ta'lim tizimida joriy etshp;

- ta'lim-tarbiya jarayonini turli ta'lim innovatsshlaridan foydalanish yordamida muntazam ravishda rivojlantirib, takomil-lashtirish.

Bugungi kunda bunday istiqbolli muammolarni hal qilishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, keyingi paytlarda pedagogik adabiyotlarda va ma'ruzalarda ta'limda yangi axborot texnologiyalari, yangi pedagogik texnologiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'limda innovatsion texnologiyalar kabi iboralar ko'plab uchramoqda. Bu qayd etilgan texnologiyalar aniq ta'riflanib bitta tizimga keltirilmagan, ammo barchasidan ko'zlangan maqsad ta'limda sifat o'zgarishlar qilishga qaratilgan.

Umuman olganda bugungi kunda pedagogik texnologiyaga butun jahonda katta e'tibor berilmoqda.

Pedagogik texnologiya asosan tizimli yondashuvdan iborat bo'lib, pedagogik tadqiqotlarda «Tizimiy yondashuv» tadqiqot usuli boshqa yondashuvlardan keskin farq qiladi va manbani har tomonlama chuqur o'rganish imkonini beradi.

 Uzluksiz ta'lim tizimining bugungi kundagi talabi jahon ta'limining zamonaviy talablarga javob berishi lozim. Tizimning bu sohada, ayniqsa pedagogik - tadqiqotlarni olib borishdagi ilmiy izlanishlarimiz natijalari, TYO tadqiqot usulini qo'llashda quyidagi asoslarga tayanish lozimligini ko'rsatmoqda:

- o'rganilayotgan manba bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlar bankini tayyorlash;
- tayyorlangan ma'lumotlar bankini ta'lim texnologiyasi va maqsadiga qarab tizimlarga ajratish;

- o'rganilayotgan fan mazmunini tizimiy yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilib chiqish;
- tizimiy yondashuvning manbaga nisbatan maqsadini aniqlash;
- tizimiy yondashuv tuzilishiga qarab elementlar va qism tizimlarni aniqlab chiqish;
- tizimiy yondashuv vazifasini aniqlash;
- tizimiy yondashuv tadqiqot usulini qo'llash algoritmini ishlab chiqish;
- tizimiy yondashuv yordamida o'qitish dasturi va jarayonini dastlabki ekspertizadan o'tkaza olish;
- tizimiy yondashuv yordamida o'qitishga ko'rsatma va uslubiy tavsiyalar tayyorlash;
- olingan natijalarni baholash mezonini ishlab chiqish;
- maqsadga erishganlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqish;
- tizimiy yondashuv yordamida ta'limni boshqarish to'g'risida xulosa chiqarish va bu metodologiyadan amaliyotda foydalanishga tavsiyalar tizimini tayyorlash.

Keltirilgan ta'riflar va tizimiy yondashuv asoslaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, mazkur tadqiqot usuli —> «ma'lumotlar -> ma'lumotlar banki -> axborot ->» axborotlar banki -> axborot tizimlari» uzluksizligi bilan to'g'ri va aniq faoliyat yurita olar ekan. Bu esa o'z navbatida tadqiqot manbai va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar majmuasi hamda ularning turli o'zgarishlariga bog'likdir. Demak, TYO tadqiqot usuli tili bilan aytganda «elementlar —> qism tizimlar —> tizim» aloqadorligidagi ma'lumotlar bilan ish ko'rar ekanmiz. Bunday ko'rinishdagi ishlarni bajarish esa bizga ma'lumki, ma'lumotlarni kayta ishlash bilan bog'liq bo'lib, juda katta hajmdagi ma'lumotlar va ularning turli ko'rinishdagi bog'lanishlarni e'tiborga olishga to'g'ri keladi. Bunday katta hajmdagi ma'lumotlar va ular aloqadorligi haqidagi bilimlarni har qanday tadqiqotchi ham har doim esda saqlab qola olmaydi. Bunday hollarda, tadqiqotchiga informatika fani yutuqlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

2. Tizimli tahlil tushunchasi

Ijtimoiy va maishiy hayotda yuzaga keladigan turli hodisa va voqealarning ifodalanishiga, jarayonlarning yuzaga kelishi va kechishiga (dinamikasiga) e'tibor qaratsak, ularning zamirida ta'lim-tarbiya, aniqrog'i, uning hosilasi sifatida biron bir xulq modeli namoyon bo'lishini kuzatish mumkin. Bu masalaga pedagogik faoliyatning manfaati nuqtai nazari bilan qaraganda, ta'lim-tarbiya berish jarayonida professor- o'qituvchilar qator vazifalarni bajarishi kuzatiladi. Bu vazifalarning muhimlari sifatida - axborot berish, dunyoqarashni shakllantirish, hayot yo'lini tanlashni o'rgatish, madaniylashtirish, muloqotga tayyorlash (jumladan kasbiy), maqsadni shakllantirishni o'rgatish kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. YUrtboshimizning o'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan bildirgan tabrik nutqida mazkur masalaga alohida e'tibor qaratib, jumladan: “Bu dunyoda har qaysi ongli inson - qaerda ishlamasin, qanday kasbu kor, lavozim egasi bo'lmasin, unga bilim va tarbiya berib, hayotga yo'llagan muhtaram o'qituvchi va murabbiylari oldida hamisha qarzdorlik hissi bilan yashaydi. Haqiqatan ham, o'zining ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini bag'ishlab, barchamizga ezgulikdan saboq bergan, otadek mo'tabar, onadek mehribon siz, aziz ustozlarning hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan mashaqqatli va sharaflil mehnatingiz uchun har qancha tahsin va tashakkurlar aytusak, arziydi”² deb ta'kidlagan.

Bu vazifalarni amalga oshirish professor-o'qituvchilar talaba(tinglovchi)larni faqatgina o'quv faoliyatini emas, balki ularni o'zlarini namoyon etish, darsga va atrofda qilargalarga bo'lgan munosabatini, intilishlarini, qiziqishlarini, e'tiqodi va ta'limga bo'lgan munosabatini ham o'rganib borishadi. Bunda ular asosan kuzatuv, suhbat (diagnostik), kontent tahlil (yozma nazorat ishlarini sharhi), ekspertcha so'rov (boshqa ustozlarning fikrini inobatga olish (bilib olish)), faoliyat mahsulini o'rganish (ijobiy yoki salbiy xulq modelini o'rganish) kabi usullardan foydalanib, tahlilni amalga oshirib, galdagi kasbiy vazifalarni belgilash (kasbiy darajada qaror qabul qilish) uchun axborot jamlaydi. Axborot alohida pedagogik vaziyat, pedagogik faoliyat, shaxsiy yoki

ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati, shaxsiga, o'quvchilar jamoasiga taalluqli bo'lishi mumkin. Axborot muammoga oidligi bo'yicha sharhlanadi, xulosa va taklif-tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bundan ko'zlangan maqsad to'g'ri qaror qabul qilish jarayonini ta'minlashdan iborat.

Ko'rinib turibdiki, pedagogik faoliyatda turli majmuaviy xususiyatlari bilan tahlil alohida o'rin tutadi. "Tahlil alohida ilmiy tayyorgarlikni, turli ilmiy uslublarni maqsadli tanlash va o'rinli qo'llash, o'rganilayotgan muammo bo'yicha bilimga ega bo'lishni talab etuvchi faoliyatning murakkab turidir"³. Bugungi kunga qadar tahlilning barchaga maqbul bo'lgan, ya'ni universal modeli yaratilmagan (yaratilishi ham mumkin emas), ammo shunga qaramay jamiyat doirasida turli darajalarda tahlil va qaror qabul qilish uchun muhim hisoblangan tahliliy manbalarga ehtiyoj oshib bormoqda.

Kasbiy muloqot davomida "tahlil", "izoh", "sharh", "talqin" kabi tushunchalar ko'p qo'llaniladi, biroq ularning mohiyatiga doimo ham e'tibor qaratilmaydi. "Izoh" tushunchasi, birinchidan, so'z, ibora, voqea-hodisa va boshqaga beriladigan tushuntirish, sharh, tavsif (masalan: so'z ma'nosining izohi, qonun moddasining izohi, sharhi) kabilarni anglatadi. Aniq kontestga (matnga) uning ayrim joylariga kiritilgan yoki muhokama qilinayotgan masalaga berilgan qo'shimcha ma'lumot, tushuntirish, eslatma, uqtirish ma'nolarini ifodalaydi.⁴ SHarh esa tushuntirish, izohlash, tavsiflash, eslatma kabilarni bildirib, biror narsaning mazmuni, mohiyatini ochib berish, tushuntirib berish, izohlashdir.⁵ Tahlil, tarqatish, yozish, tekshirish, surishtirish, hal qilish, ochish degan ma'nolarni bildirsada, unga quyidagicha munosabat bildirish mumkin: tahlil, murakkab tafakkur operatsiyasi hisoblanib, uning yordamida predmet va jarayonlar (hodisalar) aniq o'lchov birligiga ega bo'lgan usullar vositasida yaxlit tarzda yoki alohida qismlarini turli belgi va xususiyatlari bo'yicha aloqadorlik darajasini belgilab beradi. Ko'rsatishicha, tahlil tushunchasi quyidagi tasniflarga ega:

1. Narsa, hodisa va shu kabilarni mohiyat, qonuniyat va boshqa jihatlardan tekshirish, o'rganish ishi;

2. Biror narsa, ma'lumot va shu kabilarni ma'lum nuqtai nazardan o'rganish, baholash;

3. Biror narsaning tarkibini belgilash va uning mohiyatini tadqiq etish.

Pedagogik faoliyatni takomillashtirishda tahlil amaliy mazmun kasb etib, ta'lim-tarbiyaning sifatini ta'minlash uchun xizmat qiladi. YUzaga kelgan pedagogik muammoning (masalan, pedagogik nizo) sabablarini aniqlash, uni kechishining davriyligini bilish uchun, nizoning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni, bunda avvalo qaysi qonuniyatlarga (ular tabiiy yoki sun'iy bo'lishi mumkin) amal qilinishini bilish lozim bo'ladi.

Tahlil, intellektual faoliyatning yuqori bosqichi hisoblanib, hodisa, jarayon (jumladan pedagogik jarayonni), raqam va dalillarni aloqadorlik darajasini belgilab berishda namoyon bo'ladi. Tahlil, faoliyat shakli sifatida rivojlanib, bugungi kunda tahlilning turli shakli va tahlilning turli usullari vujudga keldi. Negaki, har qanday muammoni, shu jumladan pedagogik faoliyat doirasida vujudga keladigan "X-viziyat"larni konstruktiv kechishini ta'minlash uchun tahlil amaliy ahamiyat kasb etadi.

"Insonlar hamma vaqt jamiyat hayotida sodir bo'ladigan turli voqea va hodisalarning kelib chiqish sabablarini aniqlash masalasi bilan qiziqib kelishgan. Dastavval, buning uchun, voqea hodisalar shaklan qiyoslanib, ularning mazmun va mohiyatiga ko'p ham e'tibor qaratilmagan bo'lishi mumkin. Bu barcha intilishlar hayot davomida paydo bo'ladigan turli to'siqlarni bartaraf etish, paydo bo'lgan muammolarning echimini topish maqsadida amalga oshirilganki, uni biz shartli ravishda tahliliy faoliyat shakllanishining birinchi bosqichi deb ko'rsatsak xato qilmagan bo'lamiz"

YU.Surmin "Teoriya sistem i sistemnyy analiz" deb nomlangan o'quv qo'llanmasida: tahliliy faoliyatning ibtidosi Suqrotga borib taqaladi, masalalarni hal etishda u dialogdan (muammoni echimini topish (aniqlash) usuli sifatida – S.R.) foydalanib, munozaralar asosida dalillarni keltirishga musharraf bo'lgan⁸ deb munosabat bildirgan. Tizimlarni tavsiflashda ularning turli jihatlariga e'tibor qaratiladi, tizimni tavsiflashda quyidagi bosqichlarga amal qilinadi: Funktsional tavsif bosqichi, bunda alohida funksiyalar ko'rib chiqiladi, ya'ni tizim faoliyatining algoritmlariga e'tibor qaratiladi. Funksiya deganda, maqsadga etaklovchi xossalar nazarga tutiladi. Bunda funktsional yondashuv asosida tizimning bajariladigan funksiyalari

baholanadi. Tizimning faoliyatmandligini aniqlash tizim holatini belgilash, taktizimlarni boshqarish qonuniyatlarini belgilab olish uchun imkoniyat yaratadi.

Morfologik tavsif bosqichida tizim ajratgan unsurlarning tarkibi va ularning aloqadorlik darajasi hamda tizimning tuzilmaviy jihatlari tasvirlanib, tasvirning to'liqligi va qismlarga ajratilganligi ko'rsatiladi. Axborotli tavsif bosqichida tizimning funksional va morfologik xususiyatlarini ichki va tashqi axborotlarning sifati bilan bog'liqligi belgilab olinadi.

Tizim ma'lum munosabatlar vositasida atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishidan dalolat beradi. Bu munosabatlar o'zida:

tashqaridan keladigan (stimul) turtkilarni – (inputs) **kirishlarni** va atrof-muhitga chiqadigan barcha ta'sirlarni – (outputs) **chiqishlarni** jamlaydi.

Tizimga nisbatan turtkilar, ya'ni stimullar ikki xil shaklda bo'lishi mumkin. Ularga talab va qo'llab-quvvatlashni keltirish joizdir.

Talab-turtkilar (stimullar) quyidagi shaklda amal qiladi:

qadriyatlar va xizmatchilarning ish haqi, mehnat sharoitlari, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqalarni taqsimlashga oid (stimul) turtkilar;

fe'l-atvorni tartibga solishga oid (stimul) turtkilar (barqarorlikni ta'minlash);

kommunikatsiya va axborotga oid turtkilar. Bularga, axborotdan erkin va teng foydalanish huquqi va boshqalar kiradi.

Qo'llab-quvvatlash turtkilar (stimullar)ga quyidagilarda ifodalanadi:

fuqarolarning qonunlarga rioya qilishi;

ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi;

rahbariyatga munosabati va rasmiy qonuniy axborotga e'tibori;

xizmatlar ko'rsatishi va tizimni moddiy jihatdan moliyalashtirishi.

Kirishga keluvchi talab-turtkilar va qo'llab-quvvatlash turtkilari tizim tomonidan **chiqish** signallariga aylantiriladi yoki quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

qonun me'yorlarni yaratish;

qadriyatlar va vazifalarni taqsimlash;

jamiyatda xulq va o'zaro aloqalarni tartibga solish.

CHiqish signallari atrof-muhit – shu idora xodimlari jarayonga ma'lum ta'sir ko'rsatadi, javob qaytaradi. __ “Tizim” tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra, ierarxik jarayon, chunki u tizim haqida tushunchalarning xuddi tizimning tashqi muhit bilan o'zaro hamkorligini ifodalaydigan, yirikroq tizimning ayrim qismi, o'zining ba'zi yaxlitligi va shaxsiy bo'lakchalari yig'indisini ko'zlaydi.

9 Tizimning muhim jihati voqelikning ichki tarkibiy qismlariga egaligi, ushbu qismlar orasida pog'anali buysunishning yuzaga kelishi hamda bu qismlarning nisbiy mustaqilligida aks etishidir 10. SHuningdek ilmiy adabiyotlarda “tizim” va “sistema” iboralari sinonim, aynan bir xil ma'noli so'zlar tarzida qo'llanadi. Falsafiy qomusiy lug'atda: “tizim”, sistema (qismlardan iborat butun) – o'zaro munosabat va aloqada bo'lgan, muayyan yaxlitlikni hosil qiluvchi ko'p qismlar (elementlar) majmui”, - deb ta'rif berilgan 11. Yana shu manbada quyidagi izohlarni uchratish mumkin. “Sistema” – yaxlit bir butunlik sifatida tashkil topgan ob'ektni ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy kategoriya. Odatda, sistemani eng muhim umumiy tarzida elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar birligi sifatida ta'riflaydilar. “Sistema” tushunchasi o'z ma'nosiga ko'ra “aloqa”, “element”, “butun”, “birlik”, “struktura”, (elementlar o'rtasidagi aloqalar sxemasi) tushunchalari bilan bog'liq. Ushbu o'rinda sistemali tadqiq etishning asosiy vazifalari: sistema elementlari, aloqalari va strukturasini, elementlar o'rtasidagi bog'liqlikni ajratishdir.

Sistemaning mohiyatini metodologik tushunishga ko'ra sistemalilik ob'ekt va hodisaning o'z hossasi deb emas, balki faoliyatning aniq bir maqsadga yo'naltirilishi, tafakkurni tashkil etish sifatida ta'riflanadi

Tahlilga (jumladan tizimli tahlilga) bugungi kunda faoliyatning alohida turi sifatida qarab kelinmoqda. Negaki, turli darajalardagi (tezkor, strategik va b.) boshqaruvda tahliliy faoliyatning mahsuli bo'lmish sharh, ma'lumotnoma, izoh, hisobot, xabarnoma, yo'riqnoma, murojaatnoma kabilarga hayotimizning turli sohalarining ravnaqini ta'minlash maqsadida murojaat etib kelinmoqda. Tahliliy faoliyat mahsuli ijtimoiy taraqqiyotning rivojlanish jarayonini bosqichlarga

ajratib, ijobiy va salbiy jihatlarini belgilab, bajariladigan galdagi vazifalarni aniqlab olish uchun amaliy xizmat qiladi. Bunda tahlilning nisbatan mukammal turi sifatida tizimli tahlil alohida o‘rin tutadi.

Tizimli tahlil deb, murakkab hisoblangan ijtimoiy, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ilmiy xarakterga ega bo‘lgan masalalarni o‘rganish uchun qo‘llaniladigan tahliliy vositalar (usullar) yordamida amalga oshiriladigan tahlil turiga aytiladi.

Ijtimoiy taraqqiyotni ta‘minlashda tahliliy faoliyatning tutgan o‘rmini inobatga olsak, uni ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi qay darajada yuqori ekanligini tushunish qiyin emas. Negaki, aynan tahliliy manba (dissertatsiya, monografiya, ilmiy maqola, sharh, hisobot, ma‘lumotnoma, taqriz va boshqa shu shakldagi manba bo‘lishi mumkin) vositasida soha vakillari strategik mazmunga ega bo‘lgan masalalarni mazmun-mohiyatini izohlab, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalar taraqqiyotini ta‘minlashning asosiy vazifalarini belgilab beradi. Tahlilning rivojlanish tarixi har bir mintaqada o‘ziga xos tarzda rivojlangan bo‘lib, G‘arb mamlakatlarida bu xususda bir qator yutuqlar qo‘lga kiritilgan. E. Jonsonning yozishicha, “XX asrning 90-yillarida birgina Washingtonda yuzga yaqin tahliliy markazlar mavjud bo‘lgan”.

2000 yildan so‘ng, umuman, dunyoda tahliliy faoliyatga ehtiyojning o‘shishi kuzatildi. Bunga misol tariqasida tahlil markazlarining umumiy soni 4,5 mingga etganligini 14 ko‘rsatib o‘tish mumkin. 2009 yilning oxirlariga kelib esa ularning soni 5,5 ming tani tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich tahlilning sohaviy rivojlanishi strategik boshqaruv nuqtai nazari bilan qaraganda zaruriyat ekanligini ko‘rsatadi. Tahlil faoliyat sifatida bunyodkor, mushohadali va ijodkor inson tomonidan amalga oshirilishi natijasida shaxs, jamiyat va davlat hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan manfaatlar ta‘minlanadi.

3. Tizimli tahlil vazifalari.

Tahlil etish jarayonida ularni maqsadi, amal qilish qonuniyatlarini inobatga olish talab etiladi. Tizimli tahlil asosida qaror qabul qilish uchun turli ko‘rinishga ega bo‘lgan manba tayyorlanadi. Pedagogik faoliyat doirasida bu ma‘ruza, tezis, hisobot, tavsiyanoma tarzida ham bo‘lishi mumkin. Chunki tizimli tahlilning bir qator vazifalari mavjud bo‘lib, ular haqida aniq tushunchaga ega bo‘lish, tahliliy faoliyatni mazmundorligini ta‘minlash uchun xizmat qiladi. Ularning muhimlarini keltirib o‘tamiz:

Tizimli tahlilning boshqaruvchanlik funksiyasi boshqaruv jarayonini turli bosqichlarida qaror qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rish, qaror qabul qilish, qarorni joriy etish va qaror ijrosini nazoratini amalga oshirish uchun axborot bilan ta‘minlaydi.

Tizimli tahlilning diagnostik funksiyasi jarayonni kechishi yoki faoliyat davomida yuzaga kelgan holat (vaziyat), ya‘ni joriy holat haqida ob‘ektiv tasavvur (manzara)ni shakllantiradi (tasvirlaydi).

Tizimli tahlilning ogohlantiruvchi funksiyasi jarayonni kechishi davomida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy muammo, turli shakl va ko‘rinishdagi xavf (X vizitlar) va nizolar haqida ogohlilik berib, ularni barataraf etish uchun (ularga konstruktiv tus berish uchun) xizmat qiladi.

Tizimli tahlilning bilish – mental funksiyasi, faoliyat davomida yuzaga kelgan holatning mohiyatini anglash uchun, boshqaruvni amalga oshirishda qo‘llanilayotgan usullarni, yondashuvlarni, qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda boshqaruv mentalligini o‘zgartirish uchun xizmat qiladi. Tahlil, nafaqat pedagogik jarayonni rejalashtirish va boshqarishni amalga oshirishda, balki maishiy hayotni turli davrida har bir inson tomonidan turli manfaatdorlik ehtiyojidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ammo, pedagogik faoliyatda tahlil ilmiy, ilmiy-pedagogik, ilmiy-kasbiy mazmun kasb etib, pedagogik jarayonni samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Bu o‘z navbatida ta‘lim-tarbiya sohasida barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirish uchun zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, fan-texnika yutuqlarini ta‘lim- tarbiya jarayoniga joriy etib, jahon talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash, ta‘lim-tarbiya tizimini milliy ehtiyoj vamanfaatlardan kelib chiqqan holda faoliyatni takomillashuvini taqozo etadi.

4. Pedagogik tizim doirasida tahlil

Pedagogik tizim doirasida tahlilni amalga oshirish uchun, tizimli tahlilning xususiy jihatlari amaliy mazmun kasb etadi, bu xususda fikr yuritishdan oldin, pedagogik tizim haqida munosabat bildiramiz. Pedagogik tizim, bu yagona maqsad sari, aniqrog'i shaxsning kamolotini ta'minlash uchun o'zaro aloqador bo'lgan, bir birini to'ldiruvchi, takomillashtiruvchi, son yoki sifat ko'rsatkichi bo'yicha bir xossa o'zgarsa albatta ikkinchi xossa ham o'zgaradigan, turli tuzilmaviy tarkiblardan (ya'ni: pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, pedagogik hamkorlik, pedagogik mavjudlik (amaliyot)) iborat bo'lgan majmuadir (yaxlitlikdir). Fanda tahlilning bir qator turlari mavjud bo'lib, fan sohalari doirasida ular turli xossalari bo'yicha tavsiflanishini alohida ko'rsatib o'tib, muhimlarini keltiramiz: - funksional tahlil, institutsional tahlil, trendlar tahlili; fragmentar tahlil; ivent tahlil; mifologik tahlil, grafikali tahlil, prognozlarining tahlili, aksiologik tahlil, pragmatik tahlil, prakseologik tahlil, dasturlar tahlili, muammoli tahlili, konseptual tahlil, vaziyatli tahlil, syujetli tahlil, juz'iy o'zgarishlar ko'rsatkichining tahlili, sabab-oqibat bog'liqligi tahlili, korrelyasion tahlil, klasterli tahlil, semantik tahlil, diskurs tahlil, darajali tahlil, qiyosiy (jumladan juftli) tahlil, resurslarning tahlili, mantiqiy-lingvistik tahlil va b.

Demak, tahlil, shu jumladan tizimli tahlil o'z sohasining bilimdoni, yangiliklarga intiluvchi-bunyodkor, chuqur mushohada yurita oladigan-ijodkor inson-mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi natijasida pedagogik mehnat, shaxs, jamiyat va davlat hayoti bilan bog'liq bo'lgan manfaatlarni himoyasi ta'minlanadi. Pedagogik tizim doirasida bu masala alohida mazmun kasb etib, istiqbolga qaratilganligi, millat, vatan taqdiri bilan bevosita bog'liq bo'lganligi jihatidan strategik masalalar sirasiga talluqli bo'lishi bilan ham ahamiyatlidir.

Tahlil turini qaysi birini qo'llashdan qat'iy nazar, uning natijasida biron bir shaklga ega bo'lgan manba tayyorlanadi. Pedagogik faoliyat doirasida bu taqriz, tezis, maqola, raddiya, izoh, ma'lumotnoma, tavsiyanoma, yo'riqnoma, ko'rsatma, maslahat tarzida bo'lishi mumkin. Agarda, aniq pedagogik vaziyat o'rganilsa, bunda ma'lumotnoma yoki tavsifnoma tayyorlanadi. Pedagogik faoliyat tizimida tahlil ko'p funksiyalarni bajarib, zamonaviy pedagog pedagogik jarayon davomida yuzaga keladigan real (shu jumladan ehtimolli) vaziyatlarni ta'lim-tarbiya berish manfaatidan kelib chiqqan holda tahlilini amalga oshira olishi, pedagogik jamoada, jamiyatda zamonaviy pedagog imijini shakllantirishi uchun muhim hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Tizimli tahlil nima?
2. Ilmiy tadqiqot jarayonini tizimli taxlilining bosqichlari qaysilar?
3. Pedagogik faoliyat tizimidagi taxlilning funksiyalarini sanang?
4. Tizimli yondashuv jarayoni asoslari?